

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10934575>

## NAZORATCHILARIDA PERTSEPTIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

**Turaxujayev Orif Sirojidinovich**

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

*“Muallim bilimli, aqli,adolatli, o‘zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi”.*

**Abdurahmon Jomiy**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada harbiy nazoratchilarida pertseptiv kompetentlikni rivojlantirish, ularning kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirib borish, mexanizmlarini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish va amaliyatga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Amaliy pedagogik faoliyat, Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar, nazoratchilarida pertseptiv kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, yangi o‘qitish texnologiyalari, zamonaviy taraqqiyot bosqichi, amaliy pedagogik faoliyat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность развития перспективной компетентности у будущих офицеров, совершенствования их профессионально-методической подготовки, глубокого научного изучения их механизмов и применения их на практике.

**Ключевые слова:** Практическая педагогическая деятельность, профессиональное мастерство педагогических кадров, творческое и системное мышление, самостоятельность принятия решений кадрами, развитие перспективной компетентности будущих офицеров, совершенствование профессионально-методической подготовки, новые технологии обучения, современный этап развития, практическая педагогическая деятельность.

**Abstract:** This article discusses the importance of developing perceptual competence in future officers, improving their professional methodological training, in-depth scientific study of their mechanisms and their application in practice.

**Keywords:** Practical pedagogical activity, Professional skills of pedagogical staff, creative and systematic thinking, independent decision-making staff, development of perceptual competence in future officers, improvement of professional methodical training, new teaching technologies, modern stage of development, practical pedagogical activity.

Mamlakatimizda harbiy ta’lim sohasida erishilayotgan qator ijobjiy o‘zgarishlarga mos ravishda harbiy ta’limda sifat va samaradorligi rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan unumli foydalanish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda harbiy ta’lim sohasini isloq qilishning asosiy omillaridan biri ta’lim jarayonida nazoratchilarida pertseptiv kompetentlikni rivojlantirishni joriy etishdir.

Hozirgi kunda qobiliyatlar siz kelajakni tasavvur qilib bo‘lmaydi, kundalik turmush tarzimizda amalga oshirayotgan barcha ishlarimiz ushbu soha bilan chambarchas bog‘liqdir.

**Pertseptiv qobiliyatlar** - bu shartnomaga asosidagi harbiy xizmatchi nazoratchilarining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, shaxsining vaqtinchalik psixologik holatlari bilan bog‘liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir. Qobiliyatli harbiy o‘qituvchi nazoratchilarni har qanday kichik hatti-harakatlarida yorqin ifodalaniladigan tashqi holatlarida hamda ularning ichki dunyosida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni sezdirmasdan bilib oladi.

Pertseptiv kompetentlikni rivojlantirish mamlakatimizda harbiy ta’lim sohasida erishilayotgan qator ijobjiy o‘zgarishlarga mos ravishda harbiy ta’limda sifat va samaradorlik rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan unumli foydalanish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda harbiy ta’lim sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri ta’lim jarayonida shartnoma asosidagi harbiy xizmatchi nazoratchilarida pertseptiv kompetentlikni rivojlantirishni joriy etishdir.

Hozirgi kunda qobiliyatlarsiz kelajakni tasavvur qilib bo‘lmaydi, kundalik turmush tarzimizda amalga oshirayotgan barcha ishlarimiz ushbu soha bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shartnoma asosidagi harbiy xizmatchi nazoratchilarida pertseptiv kompetentlikni rivojlantiradigan, shakllantiradigan shaxslararo aloqalar, tashqaridan qaraganda konkret faoliyatga xos munosabat yoki sub’yekt – sub’yekt munosabati qabilida yonma-yon mavjud bo‘lgan sub’yekt-sub’yekt munosabati shaklida yuzaga chiqadi. Lekin, bilvosita namoyon bo‘lish momenti, fakti faqat konkret faoliyatning emas, balki munosabatning ham eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib qoladi. Chuqurroq yondashiladigan bo‘lsa, bevosita sub’yekt-sub’yekt aloqasi shunchaki o‘zicha mavjud bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq allaqanday ob’ektlar (moddiy yoki hayoliy ob’ektlar) vositasida namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Bu individning boshqa individga munosabati faoliyat ob’ekti (sub’yekt – sub’yekt – sub’yekt) orqali namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, shartnoma asosidagi harbiy xizmatchi nazoratchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiluvchi talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik nazoratchining muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to‘plamini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

**Kompetentlilik** – nazoratchilarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda ya’niy Xalqaro aeroportlar nazorat o‘tkazish joylarida xizmat olib borishda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi.

Hozirgi kunda yuqori darajada kasbiy mahoratga ega bo‘lgan shartnoma asosidagi harbiy xizmatchi nazoratchilarni tayyorlash bo‘yicha tayyorgarlik tizimining turli ko‘rinishlari va strategiyasi mavjud bo‘lib, zamonaviy armiya, harbiy kadrlar ta’minot tizimining shartli elementlari mutaxassislarning ma’lumoti va ilmiy darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi har bir

mamlakatning o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, turli xil ko‘rinishda amalgamashirilib, dunyoda yuzaga kelayotgan harbiy siyosiy vaziyatga qarab takomillashtirilib borilmoxda.

Hozirgi kunda qo‘shin harbiy xizmatchilarini ta’lim jarayoniga perseptiv kompetentlikni rivojlantirish va shakllantirishni joriy etish zarur.

Ichki ishlar vazirligi tizimida iqtisod, xizmat ko‘rsatish, tibbiyat, ta’lim tizimi, shaxslar tafakkurida ham tizimli o‘zgarishlar sodir bo‘lishi kuzatilmoqda. O‘zbekiston, dunyoning aksariyat mamlakatlari singari, hayotning barcha soxalarida ilm-fan, texnika va axborotning muhim roli bilan ajralib turadigan boshqa texnologik inqilob, yangi sivilizatsiyaning paydo bo‘lishi arafasida.

Yangi O‘zbekistonning rivojlanishi va uning taraqqiyoti, shuningdek, uchinchi Renessans taraqqiyoti va strategiyasining istiqboli uchun paydevor qo‘yishimiz bugungi kunnning o‘ta muhim masalalaridan biridir. Zero, hozirgi jadal sur’atlar bilan shiddat bilan o‘zgarayotgan jamiyatda O‘zbekiston uchun an’anaviy iqtisodiyotni imkon qadar zamonaviy axborot, intellektual, raqamli iqtisodiyotga aylantirish juda muhim masalalardan biri sanaladi.

Shu bilan bir qatorda bugungi kunda, Qurolli Kuchlarimiz tarkibini sifat jihatidan butunlay o‘zgartirish va ularni bugungi kun talablariga javob beradigan zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan nazoratchilarni tayyorlashdir. Shu boisdan oliy harbiy ta’lim muassasalari faoliyatini texnologik kompetentlik yondashuv asosida yanada jadallashtirish zarurati ko‘zga tashlanmoqda.

Shundan kelib chiqib, qo‘shin nazoratchilarining tayyorlash sohasida olib borilayotgan tizimli o‘zgarishlar asosida oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha texnologik kompetentligini mustaqil ta’lim jarayonida rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu bois, harbiy ta’lim oldida turgan muammolar, maqsad va vazifalarni belgilanish o‘z bilimi va hayotiy tajribalarga tayanib turli texnologiyalar yordamida o‘zining harbiy intellektual salohiyatini oshirish muammolari pedagogika fanida va amaliyotida hal qilish uchun nazariy asoslar va texnologiyalarning yetishmasligi bilan jamiyatning ehtiyojlari va zaruryatlari o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud.

Hozirgi kunda “harbiy ta’limda pertseptiv kompetentlik” tushunchasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ushbu qarama-qarshilikni hal qilish yo‘llarini aniqlash, intilish va topish bugungi ilmiy konferensiya maqsadidir.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamoniy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” bugungi kunda muhim vazifalar hisoblanadi.

Xorijiy oliv harbiy ta’lim muassasalarining mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha ilg‘or halqaro tajribalarni o‘rganish va milliy kadrlar tayyorlash tizimimizga joriy etish mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha ilmiy-metodik seminar kurslari tashkil etish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish maqsadga muvofiqli.

Qo‘sish nazoratchilarining kasbiy va pertseptiv kompetentligini rivojlantirishda eng muhimi amaliy jarayon hisoblanadi. Oliy harbiy ta’lim muassasalari bilan xamkorlikda qo‘sishlardagi ta’lim jarayonida nazoratchilarning perceptiv kompetentlikni rivojlantirish kerak. Eng muhimi esa, harbiy sohada bu yosh shartnoma asosida harbiy xizmatga qabul qilingan nazoratchiga ancha ustunlik beradi. Mustaqil ta’lim olishning mustaqillik, mantiqiylilik, erkinlik, faollik, izchillik, tashabbuskorlik, tizimli, tahlil, haqqoniylilik, talerantlik va qiziquvchanlik kabi tamoyillarga amal qilinishi o‘zaro aloqadorligi va qo‘sishlarda mustaqil ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mustaqil ta’lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog‘liqdir.

**Mustaqil fikrlash** - insonning o‘z oldida turgan muammolarini maqsad va vazifalarini belgilagan holda o‘z bilimi va hayotiy tajribasiga tayanib turli usullar va vositalar yordamida o‘zining harbiy intellektual salohiyati orqali yechishdir. XAXTB qo‘sishlari nazoratchilarining perceptiv kompetentligini oshirish bu ularning yuqori malakali kadr bo‘lib yetishishlariga hamda Xalqaro aeroportlar nazorat o‘tkazish joylarida xizmat olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘sishlarda mustaqil ta’limni tashkil etishda harbiy o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘qitiladigan fan bo‘yicha

har bir nazoratchining kuchli va ojiz tomonlari individual imkoniyati qiziqishi, qobiliyati va ishtiyoqlari ustidan ilmiy-nazariy metodik tomondan ishlashdan iboratdir.

Hulosa qilib aytganda qo'shin nazoratchilarining pertseptiv kompetentligini rivojlantirish bilan biz qo'shnlarni har tamonlama malakali nazoratchilar bilan ta'minlab berishga erishamiz.

Pertseptiv kompetentligi rivojlangan nazoratchi xizmatni olib borish jarayonida bo'ysunuvchilarni ishga oid, ruhiy va axloqiy fazilatlarini bilib, ularni xizmatga tayinlashda jangovar vazifani samarali bajarilishida qo'l keladi. Pertseptiv qobiliyat nazoratchiga bo'linmalarga yuklatilgan vazifa va yuzaga kelgan vaziyat bo'yicha o'z vaqtida qaror qabul qilish va qo'l ostidagilarga vazifalar qo'yish, bo'linmaning jangovar-xizmat faoliyatini rejalshtirishda qo'l keladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 2017 yil 7-fevralda.
2. Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Toshkent 2018 yil., 117 bet.
3. Muslimov N. A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D. M., To'raev A. B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari /. — Toshkent, 2015. — 120 b.
4. Norboeva Sarvinoz Mengalievna. "Talabalarda pertseptiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish" (PhD) diss. Aftoref.: T. 2021. 15-bet.